

## **-mi SO‘ROQ YUKLAMASINING O‘ZBEK TILIDA ISHLATILISH O‘RNI**

*N.M.Rasulov, O‘zMU o‘qituvchisi*

*S.J.Nurmatova, O‘zMU talabasi*

**Annotatsiya.** Maqolada yordamchi so‘zlarning bir turi hisoblangan yuklamalar va ularning xususiyatlari haqida ma’lumot berilgan. So‘roq-taajjub yuklamalaridan -mi haqida to‘xtalib, ilmiy va badiiy asarlar orqali qiyosan tahlil qilingan. Ishlatilish o‘rni haqida bir to‘xtamga kelishga harakat qilingan.

**Kalit so‘zlar:** *yordamchi so‘zlar, yuklamalar, tasnif, so‘roq-taajjub yuklamalari.*

So‘zlar gapda bajaradigan sintaktik vazifasi, lug‘aviy ma’nolari hamda morfologik belgilariga ko‘ra o‘zaro farqlanuvchi turli guruhlariga bo‘linadi. So‘zlarning lug‘aviy va grammatik jihatdan farqlanishiga ko‘ra bunday guruhlariga bo‘linishi so‘z turkumlari deyiladi. So‘z turkumlarini tasnif qilish, ya’ni o‘xshash va farqli jihatdan guruhlariga ajratish qadimdan amalga oshirilgan. Xususan, yordamchi so‘zlar guruhi dastlabki morfologik tasnifdan o‘rin olgan edi va hozirgacha ham ushbu sinfni alohida bo‘lim sifatida o‘rganamiz. Ma’lumki, leksik sath birliklari ikki katta guruhga bo‘linadi: mustaqil so‘z va yordamchi so‘z. Ular orasidagi zidlanishni «ma’noviy va vazifaviy nomustaqillik» tashkil etadi. Bu ziddiyat belgisiga ko‘ra yordamchi so‘z belgisi, mustaqil so‘z esa belgisiz a’zo mavqeini egallaydi. Yordamchi so‘z hech qachon mustaqil qo‘llanmaydi, bog‘liq qurshovdagina kela oladi. Mustaqil so‘z esa mustaqil qo‘llanilish va ma’no ifodalash qobiliyatiga ega.<sup>1</sup> Yordamchi so‘zlar uch guruhga bo‘linadi: bog‘lovchi, ko‘makchi hamda yuklamalar. Yordamchi so‘zlar so‘roqqa javob bo‘lmaslik, gap bo‘lagi bo‘lib kela olmaslik, atash ma’noga ega emaslik kabi belgilar bilan xarakterlanadi. Binobarin, yuklamalar ham yuqoridagi belgilar bilan birgalikda so‘zni so‘zga bog‘lamoslik, gap bo‘lagini shakllantirmaslik, so‘z yoki gaplarga qo‘shimcha ma’no “yuklash” kabi xususiyatlarga ham ega. -mi so‘roq yuklamasi

<sup>1</sup> Sayfullayeva R.R., Mengliyev B.R., Boqiyeva G.H., Qurbonova M.M., Yunusova Z.Q., Abuzalova M.Q. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. Toshkent. 2010. 396-bet.

gaplarga so‘roq ma’nosini yuklaydi hamda tinglovchidan “ha” yoki “yo‘q” javobini talab qiladi. Ko‘pincha dialogik nutqlarda uchraydi. -mi so‘rov belgisidir.<sup>2</sup> Bunday gaplarda savol ikkinchi yoki uchinchi shaxsga qaratilgan bo‘ladi. So‘roq yuklamasi: -mi, -chi, -a, -ya, nahotki. Bu yuklamalar turli so‘z turkumiga qo‘shilib, so‘roq ma’nosini bildiradi. Ba’zan so‘roq ma’nosidan tashqari taajjub, hayrat ma’nosini ham ifodalaydi. –mi yuklamasi o‘zidan oldingi so‘zga qo‘shib yoziladi.

Kiyganingiz ipakmidi, kimxobmidi,

Suyganingiz bizlardan ham ortiqmidi?<sup>3</sup>

So‘roq yuklamasi gapning ifoda maqsadiga ko‘ra turlaridan biri sanalgan so‘roq gaplarni hosil qiluvchi vosita, qo‘shimcha ko‘rinishiga ega bo‘lgan yuklama hisoblanadi. Badiiy adabiyotda dialogik, ba’zan monologik nutq jarayonida qo‘llaniladi:

Bobo ko‘rishib, qayta-qayta so‘rashdi:

-Omonmisan, omonmisan, o‘g‘lim;

-Ha, yuribmiz sahroda, -javob beradi otam qisqagina.<sup>4</sup>

Mumtoz adabiyotning asosiy tasvir vositalaridan bo‘lgan tajohuli orifona(bilib bilmaslikka olish) san’ati ham -mi yuklamasi orqali namoyon bo‘ladi. Atoyining «Mengiz yo ravzayi rizvonmidir bu?» misrasi bilan boshlanadigan g‘azali boshdan oyoq shu san’at asosida qurilgan. Bunda shoir malaksiymo qizning chiroyidan hayratga tushadi. U shu qadar barkamolki, undagi fazilatlar sanalgan va ularga e’tibor qaratilgan sari oshiqning muhabbati kuchayib boraveradi. Ma’shuqaning yuzi (mengiz) jannat bog‘ini esga tushirsa, og‘zi «g‘unchayi xandon»ni yodga soladi. Qora ko‘zlari qaroqchini, chiroyi esa Turkiston parisini xotirga keltiradi:

Qaroqchi ko‘zlarin kim ko‘rsa aytur:

---

<sup>2</sup> A. Fitrat. Tanlangan asarlar. Toshkent. “Ma’naviyat”. 2009. 171-bet.

<sup>3</sup> Sayfullayeva.R.R, Mengliyev.B.R, Boqiyeva.G.H, Qurbonova.M.M, Yunusova.Z.Q, Abuzalova.M.Q. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. Toshkent. 2010. 414-bet.

<sup>4</sup> Oybek. Bolalik. “Sharq”. Toshkent. 2004. 37-bet.

“Ajab, ayyori Turkistonmidir bu?”<sup>5</sup> Oshiq mashuqasining shu qadar go‘zalligini bilsa-da, uning chiroyini yana ham mubolag‘ali qilib tasvirlash uchun o‘zini “bilib bilmaslikka oladi”.

-mi so‘roq yuklamasining ishlatilish o‘rni ham bahs-munozarali hodisa bo‘lib kelmoqda. Sababi, ba‘zi badiiy asarlarda uning to‘liqsiz fe‘llar bilan birikish o‘rni har xildir:

Mulla Fazliddin Xonzodabegimning nomini tilga olishga qo‘rqdi.

-Parilar suratimidi? Yaxshi tushunmadim.

-Sandig‘ingizda parilar surati bormidi? Bosqinchilar shuni olib ketibdirmi?

-Surat o‘zi bo‘lmasa neni olib ketsin! Men hazrati oliylari buyurgan madrasa tarxini chizish bilan bandmen. Suratlashlikka vaqtim yo‘q. Sandiqda xomaki loyihalarim bor edi, xolos.<sup>6</sup> “Yulduzli tunlar” asaridan olingan ushbu parchada -mi yuklamasi to‘liqsiz fe‘ldan oldin kelgan.

Ali tushirgan taxtasini qaytadan joyiga qo‘yabardi:

-Dunyoning ishi bitar emishmi, bek aka. Xo‘p desangiz do‘konni yopaman.

Otabek yarqirab chiqib kelgan quyoshg‘a qaradi:

-Yoping bo‘lmasa,- dedi.<sup>7</sup> “O‘tkan kunlar” asarida esa, “-mi”ning to‘liqsiz fe‘ldan keyin kelganini ko‘rish mumkin. XIX-XX asr adabiyotlarida “bo‘libmi edi”, “qilibmi edi” singari jumalarga ham duch kelish mumkin. Ba‘zi asarlarda ikki so‘roq yuklamasining bir o‘rinda kelib, ma’no kuchayishiga xizmat qilganini anglash mumkin: -Qordan kafan kiygaymizmi-a? -dedi ikkinchi navkar.

-Hidukush deb bejiz aytmas ekanlar! Bu tog‘ odamkush toqqa o‘xshaydir!

Bobur bu navkarlarni ovoizidan tanib, ularning oldiga keldi.

-Mirzoquli, niyatni yaxshi qilinglar! Xudo xohlasa, bu qor qamalidan eson-omon chiqib ketgaymiz. Mamatbek, kuraklaring bormi?

-Bor!- deb Tohirning samarqandlik do‘sti Mamat otining egariga tang‘ib bog‘langan kurakni Boburga olib berdi.<sup>8</sup>

---

<sup>5</sup> @fayllar.org

<sup>6</sup> Pirimqul Qodirov. Yulduzli tunlar. www.ziyouz.com kutubxonasi. 8-bet.

<sup>7</sup> Abdulla Qodiriy. O‘tkan kunlar. www.ziyouz.com kutubxonasi. 155-bet.

<sup>8</sup> Pirimqul Qodirov. Yulduzli tunlar. www.ziyouz.com kutubxonasi. 184-bet.

Bugungi kunda -mi so‘roq yuklamasining ishlatilish o‘rni hamda beradigan ma’nolari ancha kengaygan hisoblanadi. Badiiy adabiyotda qofiyani ta’minlash, ta’kid, taajjub yoki so‘roq ma’nolarini bo‘rttirib ko‘rsatish uchun to‘liqsiz fe’lning har ikki tomonidan (bo‘lgan edimi- bo‘libmi edi), zamon shakllari hamda shaxs-son qo‘shimchalaridan so‘ng qo‘llanilmoqda. Adabiy me’yor jihatdan esa, -mi yuklamasining to‘liqsiz fe’llardan keyin, agar gapda to‘liqsiz fe’l ishtirok etmasa, zamon hamda shaxs-son shakllaridan so‘ng ishlatilishi maqsadga muvofiq bo‘ladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Abdulla Qodiriy. O‘tkan kunlar. www.ziyouz.com kutubxonasi. 155-bet.
  2. A. Fitrat. Tanlangan asarlar. Toshkent. “Ma’naviyat”. 2009. 171-bet.
  3. Oybek. Bolalik. “Sharq”. Toshkent. 2004. 37-bet.
  4. Pirimqul Qodirov. Yulduzli tunlar. www.ziyouz.com kutubxonasi. 184-bet.
  5. Sayfullayeva.R.R, Mengliyev.B.R, Boqiyeva.G.H, Qurbonova.M.M, Yunusova.Z.Q, Abuzalova.M.Q. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. Toshkent. 2010. 414-bet.
  6. Усмонова.М, Азларов.Е, Шарипов.Г, Узбек тили. Тошкент. “Укитувчи” 1981 142-бет
  7. Shodmonov.E, Rafiyev.A, G‘oyipov.S. O‘zbek tili. Toshkent. “O‘zbekiston”. 1994.
- Internet ma’lumotlari.

